



**O'ZLIDEP**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ПРЕЗИДЕНТЛИГИГА НОМЗОД

**ШАВКАТ МИРОМОНОВИЧ  
МИРЗИЁЕВНИНГ**  
САЙЛОВОЛДИ ДАСТУРИ

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTLIGIGA NOMZOD

**SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOEVNING**

SAYLOVOLDI DASTURI

---

ПРЕДВЫБОРНАЯ ПРОГРАММА КАНДИДАТА  
В ПРЕЗИДЕНТЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ШАВКАТА МИРОМОНОВИЧА  
МИРЗИЁЕВА**



Shavkat Miromonovich  
Mirziyoyevning

**TARJIMAYI HOLI**

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 1957-yil 24-iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek. Oliy ma’lumotli, 1981-yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan. Muhandis-mexanik mutaxassisligiga ega. Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida kichik ilmiy xodimlikdan boshlab, katta o‘qituvchi, dotsent, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor lavozimlarida ishlagan.

1990-yilda Respublika Oliy Soveti deputati etib saylanib, Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat yuritgan.

1992-yilda Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi, 1996–2001-yillarda Jizzax viloyati hokimi, 2001–2003-yillarda Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida xizmat qilgan. Ijro hokimiyatidagi faoliyati bilan bir paytda 1995–2003-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida qonunchilik jarayonida ham faol ishtirok etgan.

**Sh.M. Mirziyoyev** 2003-yilda O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tasdiqlanib, 2016-yilga qadar ushbu lavozimda samarali faoliyat yuritgan.

2016-yil dekabr oyidan hozirgi vaqtga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Vatanimizga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilib kelmoqda.

**Sh.M. Mirziyoyev** sa'y-harakatlari bilan so'nggi olti yarim yilda mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi tarixiy ko'rsatkich – 80 milliard dollarni tashkil etib, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o'sdi. Buning natijasida aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi qariyb 2 barobar oshdi.

**Sh.M. Mirziyoyev** boshchiligidagi amalga oshirilgan kuchli ijtimoiy siyosatga yo'naltirilgan islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'lim bilan – 9 foizdan 38 foizga oshdi, maktablarda qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi.

**Sh.M. Mirziyoyev** mamlakatimizda aholini kam-bag'allikdan chiqarish bo'yicha yangi islohot asoschisi va muallifi bo'ldi. Ehtiyojmandlarni hisobga olish, kasbga o'qitish, tadbirkorligiga ko'maklashish orqali ularning bandligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi.

Ushbu davrda 2 milliondan ortiq yoki 2017-yilga nisbatan 5 barobar ko'p oila davlatning ijtimoiy himoyasi bilan to'liq qamrab olindi.

Tariximizda ilk bor 200 ming sug'oriladigan paxta va g'alla ekiladigan yerlar 2 milliondan ziyod aholiga, birinchi navbatda ehtiyojmandlarga dehqon xo'jaligini yuritish – bozorbop oziq-ovqat ekinlari yetishtirish uchun taqsimlab berildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, ularning erkin faoliyat yuritishini ta'minlashga oid tub islohotlar amalga oshirilishi doirasida soliq turlari 9 taga, soliq tekshiruvlari esa 3 tagacha qisqartirildi, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi. 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari, 132 ta litsenziya va ruxsat berishga oid hujjatlar bekor qilindi. Buning natijasida tadbirkorlik subyektlari soni 2 barobar ko'payib, 560 mingga yetdi va ularda tovar-xizmatlarning aylanmasi qariyb 2 barabarga oshdi.

**Sh.M. Mirziyoyev** tomonidan so'z erkinligini ta'minlash, ochiqlik siyosatini yuritish bo'yicha amalga oshirilgan misli ko'rilmagan islohotlar natijasida jamiyatimizda erkinlik muhiti shakllanib, ommaviy axborot vositalari faoliyati himoyasi hamda fuqarolarning axborot olish va foydalanishga bo'lgan huquqlari qat'iy ta'minlanmoqda.

O'tgan olti yarim yil mamlakatimizning nafaqat ichki, balki tashqi siyosatini ham tubdan o'zgartirgan, jahon ahliga Yangi O'zbekistonni kashf etgan davr bo'ldi.

**Sh.M. Mirziyoyev** tomonidan olib borilgan o‘zaro manfaatli pragmatik tashqi siyosat natijasida yurtimizning xorijiy davlatlar, ayniqsa, qo‘shti mamlakatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi, xususan, o‘zaro bordi-keldi rishtalari qaytadan yo‘lga qo‘yildi hamda chegaralar ochildi. Bu esa qo‘shtinichilik va do‘stlik aloqalarini mustahkamladi, shuningdek, iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishiga, gumanitar yordam va madaniy hamkorlikning qaytadan jonlanishiga turtki bo‘ldi.

**Sh.M. Mirziyoyev** oilali, ikki qizi, bir o‘g‘li, olti nafar nabirasi bor. Rafiqasi Z.M. Mirziyoyeva “Zamin” fondi vasiylik kengashi raisi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Sh.M. Mirziyoyev** davlat boshqaruvi organlaridagi ko‘p yillik samarali mehnati, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga qo‘shtan ulkan hissasi uchun “Mehnat shuhrati” va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.

Shuningdek, u turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo‘lidagi katta xizmatlari uchun bir qator xorijiy mamlakatlarning yuksak davlat mukofotlariga ham sazovor bo‘lgan.



**O'ZLIDEP**

SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOEVNING

**SAYLOVOLDI DASTURI**

---

YANGI O'ZBEKISTONNI XALQIMIZ BILAN  
BIRGALIKDA QURAMIZ

## Muhtaram vatandoshlar!

O‘zbekiston o‘tgan davrda katta va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Bu vaqtida **butun jamiyat, odamlar hayoti tubdan o‘zgardi**, qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar O‘zbekistonning har bir fuqarosiga cheksiz faxr va iftixon bag‘ishlaydi. Eng muhimmi, xalqimiz yutuq va muvafaqiyatlarni o‘z hayotida sezmoqda.

**Boshlangan islohotlarga ortga qaytmaydigan, muqarrar tus berish va ularni huquqiy kafolatlash** maqsadida 2023-yil 30-aprelda **yangi tahrirdagi Konstitutsiya** qabul qilindi. **Asosiy Qonunimiz** – xalqimiz barpo etayotgan **Yangi O‘zbekistonning** buyuk poydevori bo‘lib xizmat qiladi va kelajakdagi islohotlarning strategik yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi yiliga **2 foizza** o‘smoqda. **2030-yilga** borib prognozlarga ko‘ra, **40 millionga** yetadi. Bunday katta davlatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqqa munosib sharoit yaratish uchun **iqtisodiyot ham, boshqaruv ham, ta’lim va tibbiyot ham yangicha bo‘lishi, barcha sohalarda o‘sish, rivojlanish bo‘lishi** kerak.

Shu ma’noda, **Yangi O‘zbekiston, bu** – avvalo inson qadri ulug‘langan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaro o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan mamlakatdir.

**Yangi O'zbekiston, bu** – sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol insonlar yurtidir.

**Yangi O'zbekiston, bu** – global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo'g'iniga aylangan, kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatdir.

**Yangi O'zbekiston, bu** – fuqarolar va biznes manfaatlari adolatli qonunlar asosida himoya qilinadigan jamiyatdir.

**Yangi O'zbekiston, bu** – vatandoshlarimizni mamlakatimizda va xorijda har qanday sharoitda ham himoya qila oladigan, chegaralari ishonchli qo'riqlana-digan, xavfsiz va barqaror davlatdir.

Erkin va farovon, qudratli davlatni qurishda **beshta strategik yo'nalish** yaqin kelajakdagi faoliyatimizda hal qiluvchi o'rinni tutadi va ko'pmillatli xalqimizning orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

## **I. HAR BIR INSONGA O'Z SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROIT YARATISH**

Yangi O'zbekiston **ijtimoiy davlat**, deb e'lon qilindi. Xususan, yangilangan Konstitutsiyamizda **davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar** ko'paytirildi.

Konstitutsiyaviy qoida va talablardan kelib chiqib, adolatli ijtimoiy siyosatni yuritish – **Yangi O'zbekistonni barpo etishning asosiy omillaridan** biri etib

belgilangan. Shuning uchun, **ta'lim, tibbiyot va aholi farovonligini ta'minlash** bo'yicha davlat o'z majburiyatlarini bajarishi uchun bu yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqamiz.

### **1.1. Ta'lim tizimi islohotlari**

Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – **bilim, ta'lim va tarbiya** bo'lishi uchun **zarur sharoitlarni** yaratish siyosatimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ladi.

**Birinchidan, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'limga** bo'lgan ehtiyojni **to'liq qoplab, qamrovni 100 foizga** yetkazish va bog'chalarning **moddiy-texnik bazasini** rivojlantirish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni safarbar qilamiz.

Shu maqsadda **7 foizlik** stavkada **10 yil muddatga** kredit berish uchun imkoniyatlar yaratilib, **ishlab chiqarish korxonalarining** bog'cha qurishga sarf etiladigan xarajatlarini **soliqlardan to'la ozod** qilish tartibi ishlab chiqiladi.

**2030-yilga qadar** qo'shimcha **2 mingta** bog'cha qurish choralarini ko'rildi.

Ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun **bog'cha, shu jumladan, xususiy bog'cha xarajatlarini** davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etiladi.

Bolalarni erta yoshdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalariga o'rgatish maqsadida **har bir**

**bog‘chani kompyuter sinfi bilan** ta’minlash yuzasidan zarur ishlar amalga oshiriladi.

**Bog‘cha va maktablarni filtrlangan ichimlik suvi** hamda **sanitariya-gigiyena** infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida **oqsil, vitamin va minerallar** bilan boyitilgan **sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari** berilishi yo‘lga qo‘yiladi.

**Ikkinchidan,** kelgusi yetti yilda maktablarda qo‘srimcha 2,5 million o‘quvchi o‘rnini yaratgan holda ta’lim sifatini tubdan yaxshilashni ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida ko‘ramiz.

Bu borada “**Yiliga 500 ming o‘quvchi o‘rni**” dasaturini ishlab chiqib, hayotga joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xususiy ta’limga qo‘srimcha yengilliklar yaratilib, davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida maktablar qurishga alohida ahamiyat beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim planshetlari bilan to‘liq ta’minlanadi va buning uchun zarur mo‘liyaviy imkoniyatlar yaratiladi.

Chekka hududlarda **bepul maktab avtobuslarini** yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini ko‘ramiz.

**2030-yilgacha** barcha tuman va shaharlarda “**Iste’dod – Intilish – Istiqbol**” nomli ixtisoslash-tirilgan **maktablar** tashkil etish, ularda **Prezident**

**maktablaridan kam bo'lмаган шароитларни** yaratish yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni olib beradi. Bu maktablarda **ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun 70 foiz kvota** ajratish ko'zda tutiladi.

Kelgusi yetti yilda chet tillarini o'rgatish uchun barcha maktablarga “**til egalari**” **bo'lgan o'qituvchilar** jalb qilinib, bu maqsadlarga har yili **200 milliard so'm** mablag' ajratish choralar ko'rildi.

**Uchinchidan, oliv ta'lim va ilm-fan tizimlarini** ilg'or xorijiy tajriba asosida rivojlantiramiz.

Dunyodagi “**Top-500**”ga kiradigan chet el oliy-gohlari bilan hamkorlikda kamida **50 ta** qo'shma o'quv dasturi va “**ikki diplomli tizim**”ni joriy etish asosiy vazifa bo'ladi.

**Biotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda iste'dodli yoshlarni** eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o'qishga yuborish **bo'yicha 200 million dollarlik dasturlarni** amalga oshirishni muhim deb hisoblaymiz.

Kelgusi yetti yilda **ilm-fan va innovatsiyalarni** rivojlantirishga **1 milliard dollar** ajratilishi uchun moliyaviy imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

**Madaniyat, san'at va adabiyot vakillari, ma'naviyat sohasi xodimlari,** barcha ziyorilarning mashaqqatli va sharaflı mehnatini **qadrlash** va **rag'bat-lantirish bo'yicha** qo'shimcha choralar ko'rib boriladi.

## **1.2. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar**

**Sog'lom va barkamol avlodni** voyaga yetkazish, aholini tibbiyot tizimidan rozi qilish, o'rtacha umr davomiyligini hozirgi 73 yoshdan kelgusida **78 yoshga yetkazish** bo'yicha barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

Birinchidan, aholi o'rtasida **ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarni barvaqt aniqlash** va ular bilan kasallanish ko'rsatkichlarini keskin kamaytirish choralarini ko'ramiz.

**2030-yilga qadar onalar va bolalar o'limi,** bolalar o'rtasidagi **irsiy kasalliklarni** kamida **2 barobarga qisqartirish,** **onkologik, yurak-qon tomir, diabet, nafas yo'llari va yuqumli kasalliklar bo'yicha** erta o'limni esa **2,5 barobarga** kamaytirish sohadagi eng asosiy vazifalardan biri bo'ladi.

**Sil** bilan kasallanish darajasini keskin kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar ishga solinadi.

Jigar sirroziga olib keluvchi "**gepatit S**" kasalligini **100 foiz davlat hisobidan** davolashni yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, **2030-yilga qadar tibbiyotga budjetdan ajratiladigan yillik mablag'** hajmini **2 karra oshirib,** uni **6 milliard dollarga** yetkazish orqali aholini **kafolatlangan tibbiy xizmat** bilan qamrab olish

**darajasini** yanada kengaytirishni bu yo‘nalishdagi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaymiz.

Kelgusi yildan birlamchi bo‘g‘in orqali eng ko‘p uchraydigan **10 ta kasallikni davolash** va **6 ta tibbiy xizmatdan** iborat **kafolatlangan tibbiy paketni** aholiga **bepul** taqdim etish choralari ko‘riladi.

**Tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, bolalarga 7 turdagি vitaminlar, yod va foliy kislotasini bepul tarqatish ishlari** davom ettiriladi.

Shuningdek, **350 ming nafar diabet, 1,5 million nafar yurak-qon tomir** kasalligi bor **bemorlarni davolash** bilan to‘liq qamrab olishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Har yili yurak nuqsoni bor **5 ming bolani** va ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish ehtimoli yuqori bo‘lgan **10 ming chaqaloqni** bepul davolash rejalarimizdan alohida o‘rin oladi.

**Sog‘lijni saqlash tizimi to‘liq raqamlashtiriladi** va **tibbiy sug‘urta tizimi** joriy qilinadi.

Uchinchidan, onkologik bemorlar davolanishi va **sog‘ayib ketishi uchun zarur sharoitlarni** yaratib, ularning **odatiy hayotga qaytishiga** ko‘maklasamiz.

Jumladan, **120 ming nafar onkologik** kasalligi bor **bemorlarni davolash bilan** to‘liq qamrab olish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi.

**Onkologik bemorlar hayotini saqlab qolish maqsadida o'zak hujayralarini transplantatsiya qilish amaliyotini yo'lga qo'yish bo'yicha barcha sharoitlar yaratib beriladi.**

Ehtiyojmand oilalarning onkologik kasalligi bor farzandlarida o'zak hujayralarini transplantatsiya qilish uchun xarajatlarni to'liq davlat hisobidan qoplashga zarur moliyaviy resurslar jalg qilinadi.

### **1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar**

Ijtimoiy himoya tizimining vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnnini egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'ladi. Shu bois, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini to'liq qayta ko'rib chiqamiz va **kambag'allikni qisqartirish** bo'yicha islohotlarni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Birinchidan, har bir mahallada professional ijtimoiy xodimlar faoliyatini va **ijtimoiy xizmatlarni** manzilli asosda ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yamiz.

Hayotda og'ir ahvolga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida "ijtimoiy xizmat ishi" yuritish tartibi ishlab chiqiladi. Bunda, ushbu oilalarda sharoitni yaxshilash, ularga davolash, dorilarni yetkazish, farzandlarini bog'cha va

**maktabga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar** ko'rsatish nazarda tutiladi.

Tumanlarda ijtimoiy xizmatlarni "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatadigan **ijtimoiy xizmatlar markazlari, psixolog, huquqshunos, ijtimoiy xodim-** dan iborat "**mobil guruuhlar**" faoliyatini yo'lga qo'yish bu sohadagi vaziyatni tubdan o'zgartiradi.

Bolalarni **vasiylikka** olish tizimi, vasiylarni tanlash mezonlari va monitoring qilish tartibi qayta ko'rib chiqiladi.

**Ikkinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni** qo'llab-quvvatlash bo'yicha **yangi tizimni** yaratish – hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biri bo'ladi.

**Ortopediya, reabilitatsiya, tibbiyot** va **dori vosittalarini** nogironligi bo'lgan shaxslarning o'zi tanlaydigan, davlat esa pulini to'lab beradigan tizimni joriy etish bunday shaxslarga keng imkoniyatlarni yaratadi.

**Protez-ortopediya buyumlari** bilan ta'minlash uchun yo'naltiriladigan mablag'larni hozirgi **80 milliard so'mdan 250 milliard so'mga** ko'paytirish ushbu yo'nalishda ustuvor vazifa bo'ladi.

Nogironlikni belgilash bo'yicha **hozirgi tibbiy modeldan ijtimoiy modelga** o'tish uchun zarur choralar ko'rildi. Bunda, **ishlash istagidagi nogironligi bo'lgan shaxslarga** zarur sharoitlar yaratiladi.

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni** mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga **bepul o'qitish tizimini** yo'lga qo'yish ularning jamiyatga integratsiyasini yanada kuchaytiradi.

**Olasidagi nogironligi bo'lgan odamga qarovchi ehtiyojmand insonlarga ish haqi** to'lash tizimini joriy qilish ularning manfaatlariga xizmat qiladi.

**Nogironligi bo'lgan shaxslarni biznesga** jalb qilib, daromad topishga o'rgatgan, ularning mahsulotini realizatsiya qilishga ko'maklashgan tadbirkorlarga imtiyoz va afzalliklar berish tartibi ishlab chiqiladi.

**Uchinchidan, Yangi O'zbekistonni** – ayollari hayotidan rozi bo'lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantiramiz.

Hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan **mehribon onalarimiz, munis opa-singillarimiz, dilbar qizlarimizning** huquq va manfaatlarini, sifatli ta'lim olishini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, **gender tenglik masalalari** bundan buyon ham eng asosiy vazifa bo'lib qoladi.

Qiyn ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar uchun **huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish** xizmati kengaytiriladi.

Zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha "**Call-markazlar**"ni tashkil qilish hayotiy zaruratga aylangan.

**Tug‘ruq ta’tilidagi ayollar uchun onlayn ishlash tizimini** joriy etish yuzasidan barcha huquqiy asoslar yaratiladi.

**To‘rtinchidan, qadrli otaxon va onaxonlarimizning sog‘lig‘ini tiklash, mazmunli dam olishi uchun qo‘s Shimcha sharoitlar yaratish** bo‘yicha katta dastur qabul qilamiz.

Yurtimizdagи **uch** milliondan ortiq nuroniylar har yili **bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi, shifoxona va sihatgohlarda davolanishi**, ular uchun yurtimiz bo‘ylab **sayohatlar** tashkil etilishi bo‘yicha barcha sharoitlar yaratiladi.

Keksalarga malakali **tibbiy xizmat ko‘rsatish** uchun oilaviy shifokorlik punktlari va poliklinikalarни **qo‘s Shimcha uskunalar** bilan ta’minlash choralarни ko‘riladi.

“**Uch avlod uchrashuvlari**”, “**Otalar jasorati – ibrat namunasi**”, “**O‘nta yoshga – bir nuroniy**” harakati kabi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yanada kengaytirish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Beshinchidan**, biz mamlakatimizda **kambag‘allikni** qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiramiz.

Mehnat qobiliyatini ishga solish orqali **3 million nafar** yoshlarni **kambag‘allikdan** chiqarish asosiy vazifamiz bo‘ladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid dasturlar **kambag'al aholi bilan birga daromadi past bo'lgan qatlamlarni ham qamrab oladigan tizimni** yaratish adolatdan bo'ladi.

Tadbirkorlarga **ijtimoiy sheriklik** asosida kambag'al toifa uchun bandlik dasturlarini amalga oshirishda qo'shimcha imtiyoz va rag'batlar berish tartibini ishlab chiqib, bunga har yili kamida **1 milliard dollar** yo'naltirish bo'yicha barcha kuch va harakatlarimizni safarbar etamiz.

**Oltinchidan, har bir oila o'z uy-joyiga ega bo'lishi** uchun zarur sharoitlarni yaratamiz.

Kelgusi **yetti yilda 15 milliard dollar** hajmidagi mablag'ni yo'naltirish hisobiga qo'shimcha **1 million** xonodonli uy-joylar qurilishi – asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

**Qurilish-pudrat tashkilotlari** hamda **aholiga arzon** va **uzoq muddatli kreditlar** taqdim etish tartibi ishlab chiqiladi.

## **II. BARQAROR IQTISODIY O'SISH – AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI**

**2030-yilga** borib yalpi ichki mahsulot hajmini **2 barobar** ko'paytirib, **160 milliard dollarga** yetka-zish, **aholi jon boshiga** to'g'ri keladigan yalpi ichki

**mahsulot** hajmini hozirgi **2 ming 200 dollardan 4 ming dollarga** oshirish asosiy strategik maqsadlarimizdan biri bo'ladi. O'zbekiston "**daromadi o'rta tachadan yuqori bo'lgan davlatlar**" qatoriga kirishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

**Birinchidan, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish va bu orqali mehnat unum-dorligini 2 barobar** oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'ramiz.

Kelgusi yillarda:

- **Olmaliqda 3 ta mis boyitish** fabrikasi va yangi **mis eritish** zavodi;
- **Ohangaron misni** qayta ishlash klasteri;
- **Navoiy, Qo'ng'iroq** va **Qorako'lda** yirik **kimyo-polimer** klasterlari;
- **Toshkent** va **Navoiy viloyatlarida fosforit** xomashyosidan **yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot** ishlab chiqarish korxonasi;
- **Tebinbulloq** va **G'allaorolda temir** ishlab chiqarish majmualari kabi **strategik megaloyihalarni** ishga tushirish bo'yicha tashkiliy-amaliy ishlar olib boriladi.

**2030-yilgacha yuqori daromadli mahsulot** uchun zarur bo'lgan **mis** ishlab chiqarishni **3,5 barobar**, oltinni – **1,5 karra**, **kumushni** – **3 marta**, **uranni** **3 barobar** oshirish bo'yicha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

**Avtomobilsozlik** sohasida haqiqiy raqobat paydo bo'lishi uchun **4 ta nufuzli xorijiy kompaniyaning loyihibalarini** ishga tushirish va ishlab chiqarish hajmini yiliga **1 million donaga** yetkazish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda, yiliga **300 mingta elektromobil** ishlab chiqarilishini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rildi.

**Sanoatda qo'shilgan qiymat** hajmi **20 milliard dollardan 45 milliard dollarga** yetkazilishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

**Ikkinchidan**, tashqi bozorlarga chiqish xarajatlari yuqori ekanini inobatga olib, ilmga asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytiramiz.

Tashqi bozorlarga chiqish uchun **Jahon savdo tashkilotiga** a'zo bo'lish muhim maqsadlarimizdan biri bo'lib qoladi.

**Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi** tashkil etilib, unga **1 milliard dollar** ajratish orqali mamlakatimizda yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yangi bosqichga olib chiqiladi.

**2030-yilga qadar:**

- **50 ta nufuzli xorijiy brendlari** bilan **maxsus eksport zonalarini** tashkil qilish;
- tadbirkorlarga "**tayyor biznes**" shaklida bino berish maqsadida **sanoat ipotekasi** tizimini to'liq yo'lga qo'yish;

- har bir tumanda kamida **mingta** ish o‘rni yaratadigan **2 tadan** yangi **sanoat zonalarini** tashkil etish;
- “IT” xizmatlari eksportini **5 milliard dollarga** olib chiqish;
- **eksport hajmini 2 barobar** oshirib, **45 milliard dollarga** yetkazish ustuvor vazifa bo‘ladi.

**Uchinchidan**, butun dunyoda tez rivojlanayotgan “**yashil iqtisodiyot**”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan **qayta tiklanuvchi energiyadan** foydalanishni kengaytiramiz.

2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hajmini **25 ming megavattga**, ularning ulushini hozirgi **14 foizdan 40 foizga** yetkazishga alohida ahamiyat beriladi.

2024-yildan boshlab sanoatda “**yashil sertifikat**”-lar bozori yaratiladi.

Avtobuslarni **to‘liq ekologik toza elektr yoki gaz yoqilg‘isiga** o‘tkazish uchun barcha tashkiliy masalalar hal etiladi.

Barcha yangi uylar va asbob-uskunalarga **energiyanı tejas bo‘yicha talablar joriy** etiladi.

Iqtisodiyotda **energiya samaradorligini** 2 karra oshirish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Bunda, **10 ming kilometr magistral** va **110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlarini** barpo etish rejalashtirilib, aniq dasturlar asosida amalga oshiriladi.

**To'rtinchidan**, biznes va aholi ehtiyojidan kelib chiqib, **infratuzilmani rivojlantirish** bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilamiz.

**Yo'l-transport** sohasida aviaqatnovlar sonini **4 mar-ta** oshirish sohadagi asosiy vazifalardan biri bo'ladi.

**Toshkent – Samarqand, Navoiy – Buxoro** yo'naliishlarida **tezyurar poyezdlar uchun qo'shimcha temir yo'llar** qurilishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar qilinadi.

**Elektrlashgan temir yo'llar** ulushini **43 foizdan 65 foizga** yetkazish ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan manfaat keltiradi.

**Temir yo'l sohasiga xususiy sektor jalb qilinishi**, xizmatlar sifati raqobatbardosh narxlar asosida belgilanishi sohada erkin bozor tamoyillariga o'tishning muhim omilidir.

**Yirik 6 ta aeroport modernizatsiya qilinishi, xususiy aviakompaniyalar** soni **10 taga** yetkazilishi bu sohada raqobatni oshirib, yo'lovchilarga qulayliklar yaratadi.

**2030-yilga qadar tuman markazlaridan har bir qishloqqacha** – jami **5,5 ming kilometr sement-beton yo'llarni** qurish va **jamoat transporti** bilan to'liq qamrab olish choralarini ko'rildi.

**Toshkent – Samarqand** va **Toshkent – Farg'ona vodiysi** yo'naliishlarida **yangi avtomobil yo'llarini** qurishga davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy qilamiz.

Xususiy sektor ishtirokida **56 ming kilometr yo'larni** rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqib, amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

**Yo'lovchi va yuk tashish** hajmini **3 barobar** ko'paytirish sohadagi eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**2030-yilga qadar** barcha aholi punktlarini **toza ichimlik suvi** bilan ta'minlash muhim hayotiy masaladir. Buning uchun **2,5 milliard dollar** ajratish bo'yicha barcha moliyaviy imkoniyatlar safarbar etiladi.

Qishloq va ovullarni **internet** bilan to'liq qamrab olib, uning **tezligini 10 karra** oshirish yuzasidan imkoniyatlar ishga solinadi.

**Beshinchidan**, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirib, **iqtisodiyotimizga investitsiyalarini keng jalb etish**, shuningdek, **bank tizimini isloh qilish** eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

**2030-yilgacha 250 milliard dollar** investitsiyalar, shu jumladan, **110 milliard dollarni xorijiy investitsiyalar** hisobiga, **40 milliard dollarni davlat-xususiy sheriklik** doirasida jalb etish bo'yicha barcha imkoniyatlar safarbar etiladi.

Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini hozirgi **18 milliard dollardan 40 milliard dollarga** yetkazish bo'yicha aniq dasturlar amalga oshiriladi.

**Bank tizimi islohotlari doirasida** bank omonatlari hajmini **4 barobarga** oshirish uchun zarur sharoitlar yaratiladi va banklarni xususiylashtirish tezlashtiriladi.

Bank bozoriga yana kamida **4 ta yirik nufuzli chet el banki** kirib kelishi hamda **nobank moliyaviy xizmatlarini** kengaytirish uchun imkoniyat yaratiladi.

**Qimmatli qog'ozlar bozori hajmini 10 milliard dollarga** yetkazish choralari ko'riladi.

**Xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini** tashkil etish uchun barcha qonuniy asoslar yaratiladi.

**Oltinchidan,** xususiy sektor ulushini oshirishni, **monopol sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazish** bo'yicha ishlarni davom ettiramiz.

**Temir yo'l xizmatlari, avtomobil yo'llari** qurish va boshqarish, **gaz va elektr** yetkazib berishni **xususiy sektorga** o'tkazish orqali raqobat muhiti yaratiladi.

**Irrigatsiya, chiqindini** qayta ishslash, **ijtimoiy obyektlarda energetika** va **issiqlik ta'minoti** tizimini boshqarishga **davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari** keng joriy etiladi.

Xususiylashtirish dasturi doirasida davlat ulushi mavjud korxonalarni **6 barobarga** kamaytirish bo'yicha rejali ishlar amalga oshiriladi.

**17 turdag'i** davlat monopoliyasi **bekor qilinib**, ushbu sohalarga **xususiy sektor** keng jalb etiladi. Kelgusida **faqat magistral energiya va transport**

**tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalar** davlat tasarrufida qoladi.

**2030-yilga qadar iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish asosiy maqsadimiz bo'ladi.**

**Yettinchidan, biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratishni bundan buyon ham davom ettiramiz.**

**Rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi** uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

**Soliq tizimini soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar** yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kelgusi yillarda biznes uchun **qo'shilgan qiymat, foyda, aylanmadan olinadigan va mol-mulk solig'i bo'yicha stavkalar oshirilmasligi qat'iy kafolatlanadi**.

2024-yildan boshlab, yangi uy-joy sotib olgan aholiga **qo'shilgan qiymat solig'inining yarmi** qaytarib beriladigan tizim joriy etiladi. **Qurilishdagi hisob-kitoblar shaffof** bo'lishi ta'minlanadi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini** sotgan fermerlarga qo'shilgan qiymat solig'inining **50 foizini** qaytarish amaliyoti yo'lga qo'yilishi ularni yanada rivojlantirishda kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'ladi.

**Ijtimoiy reyestrga kiritilgan aholini ishga olgan korxonalarga xodimining daromad solig'ini** qaytarib

berish bunday toifadagi shaxslarning daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Vaqtida soliq to‘layotgan korxonalarda **qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish** muddati **bir kun etib belgilanadi**. Bunday korxonalarda **soliq tekshiruvlari o’tka-zilmaydi** va ularga davlat xaridlarida **ustunlik beriladi**.

“**Ochiq muloqot**”lar orqali biznes muammolarini hal qilish, biznesga noqonuniy **aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik va xususiy mulk daxlsizligi** siyosati qat’iy davom ettiriladi.

**Sakkizinchidan, 2030-yilgacha** qishloq xo‘jaligida bir gektardan olinadigan **o‘rtacha daromadni 3 ming dollardan 5 ming dollarga** yetkazish sohadagi bosh maqsad bo‘ladi.

Hosildorlikni **paxta bo‘yicha o‘rtacha 45–50 sentnerga, g‘alla bo‘yicha – 80–85 sentnerga** oshirish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Qo‘srimcha **300 ming hektar** maydonlarni o‘zlash-tirib, ularda **intensiv bog‘ va uzumzorlar** tashkil etish rejalashtiriladi.

**Sabzavot, poliz, kartoshka** bo‘yicha mahalliy urug‘lik ta’minoti hozirgi **15 foizdan 50 foizga** yetkazish borasidagi mavjud imkoniyatlar ishga solinadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash hajmini hozirgi **8 foizdan 25 foizga** oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaraymiz.

**Agrotarmoqda 2,5 million tonna** quvvatga ega bo‘lgan **100 ta yangi logistika markazini** ishga tushirish choralari ko‘riladi.

Sohada **eksport** hajmini yiliga **10 milliard dollarga** yetkazish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Qishloq xo‘jaligini **iqlim o‘zgarishlariga mos holda rivojlantirish**, tuproq va yaylovlar degradatsiyasining oldini olish bo‘yicha **Milliy dastur** qabul qilinadi.

Agrar sohaga jami **15 milliard dollar** investitsiyalar jalb etish ushbu yo‘nalishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### **III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat barqaror rivojlanish prinsipiiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilangan. Shu bois, **betakror tabiatimizni asrab-avaylab**, keljak avlodlarga bezavol yetkazish bo‘yicha ta’sirchan chorallarni ko‘ramiz.

**Suv resurslari muammosi** kelgusi **o‘n yillikda mintaqamiz va mamlakatimiz uchun eng dolzarb masala** bo‘lib qoladi. Bugungi kunda **70 foiz** yerlar eski usulda sug‘orilmoqda, **60 foiz** kanallar betonlanmaganligi oqibatida yiliga **16 milliard metr kub** suv

yo‘qotilmoqda. Shu sababli, sug‘orishda **suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish ishlarini jadallashtiramiz.**

**Birinchidan, 2030-yilga qadar ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish hayotiy zaruratga aylanmoqda.**

Dalalarga suv yetkazadigan obyektlar **fermer** va klasterlar boshqaruviga berilib, suv yetkazish tizimiga rivojlangan davlatlar tajribasi keng joriy qilinadi.

**Suv tejaydigan texnologiyalarni** joriy qilgan fermer va dehqonlar yanada **rag‘batlantiriladi**. Bu borada **10 foizlik** kredit ajratish, o‘z hisobidan joriy qilgan yer egalariga esa xaratjatning **50 foizini** qoplab berish tartibini joriy etish bo‘yicha ishlar jadallashtiriladi.

**Ikkinchidan, “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada kengaytiramiz.**

**Yashil maydonlarni** ko‘paytirish uchun yiliga **400 milliard so‘m** ajratib borilishi **aholi maskanlari, umuman, mahallalarda** ekologik muhitni yaxshilaydi.

**Davlat idoralari, korxonalar, oliygochlар ham** o‘zining **yashil bog‘larini** tashkil qilishi zarur.

Yangi uy-joy qurishda **pudratchilarga** “**yashil hudud**” va **avtoturargoh** barpo etish majburiy talab qilib qo‘yiladi.

**Uchinchidan, 2030-yilgacha** respublikada **ko‘kalamzorlashtirish darajasini 18 foizdan 30 foizga**

yetkazish aholini qulay ekologik muhitda yashashi uchun sharoit yaratadi.

**Orolbo'y**i mintaqasidagi o'rmonzorlarni kelgusi yetti yilda 2,3 **million** **gektarga** yetkazish bu yo'nalihdagi ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

**Toshkent shahrida** amal qilayotgan **boshqaruv kompaniyalari** faoliyatini boshqa hududlarda ham joriy etish maqsadga muvofiq.

Barcha qishloq va shaharlarni qattiq **maishiy chiqindilarni** toplash xizmatlari bilan **to'liq** qamrab olish, ularni **qayta ishlashni** esa kamida **65 foizga** yetkazish atrof-muhit tozaligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muayyan hududga yangi **hokim** tayinlanganda, o'sha yerda **ekologik audit** o'tkazish, natijalarini jamoatchilikka e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yilsa, **hudud aholisi hokim** oldiga **suv va havo tozaligi, ko'kalamzorlashtirish darjasи** bo'yicha aniq masala qo'ya oladigan tizim yaratiladi.

#### **IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonga **huquqiy davlat** degan ta'rif berildi va shu asosda **inson huquqlari kafolatlariga** oid normalar ham **3 barobar** ko'paytirildi.

Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida **xalq xizmatidagi davlatni barpo etish** vazifasini Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri etib belgilaymiz.

#### **4.1. Davlat boshqaruvi**

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida “**Davlat xizmatchisi avvalo xalq xizmatchisi bo‘lishi shart**” degan g‘oya yuqori natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi tizimini yaratishda biz olib borayotgan siyosatning asosiy talabi bo‘ladi.

**Birinchidan**, raqamlashtirish orqali **byurokratiyanı bartaraf etish** prinsipini hayotimizga jadal olib kiramiz.

**Davlat xizmatlari to‘liq** elektron shaklga o‘tkazilib, davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan minglab funksiyalarni bosqichma-bosqich raqamlashtirish aholi uchun yangi qulayliklarni yaratadi.

**Fuqarolarning** davlat xizmatlaridan foydalanish uchun **murojaat qilishida arizani yozish**, **turli shakkllarni to‘ldirish** kabi ortiqcha formal tartiblar bekor qilinib, **davlat idoralari** zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratiladi.

Har bir mahallada **elektron xizmat nuqtalari** ishga tushirilib, mahallalar barcha masalalarni “**bir qadam**” **tamoyili asosida hal etadigan** maskanga aylantiriladi.

Davlat fuqarolik xizmati tizimini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirishga alohida ahamiyat beriladi.

**Ikkinchidan**, ma'muriy islohotlarning yangi bosqichida joylardagi boshqaruvni o'zgartirib, mahalliy kengashni **xalqning chinakam ovoziga aylan-tiramiz**.

**Hokimning Kengashga rahbarlik vakolati** bekor qilinishi, ularning **Kengash oldida, xalq oldida hisobdor** bo'lishini, mas'uliyati va javobgarligi oshishini ta'minlaydi.

Mahalliy kengash deputatlar korpusini shakllantirish **tartib-taomillari** qayta ko'rib chiqiladi.

Hokim va mahalliy kengashning javobgarlik doirasi va aniq vazifalari belgilangan holda ular faoliyatida jamoatchilik ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

**Uchinchidan**, aholi farovonligini ta'minlashda **mahallani jamoatchilik va davlat organlari o'tsasi-dagi** "tayanch ko'prik"ka aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

**Mol-mulk va yer soliqlari** mahallada qolishi hisobiga, **mahalla budgetida yiliga 3 trillion so'm** mablag' paydo bo'ladi.

Kelgusi yillarda "**Ochiq budget**"ga beriladigan mablag'ni **3 karra** oshirib, **24 trillion so'mga** yetkazish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud.

**Mahalla raislarining** vakolat muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirish bo'yicha qonuniy asoslar yaratiladi.

To'rtinchidan, ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini qat'iy kafolatlaymiz.

**Nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada qo'llab-quvvatlab**, ular uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Siyosiy partiylar rolini oshirish, ular o'z kuchi va imkoniyatlarini amalda to'la namoyon etishi uchun aralash, ya'ni **majoritar – proporsional saylov tizimi** joriy etiladi.

## **4.2. Sud-huquq tizimi islohotlari**

**Qonun ustuvorligi, sud mustaqilligini oshirish va adolatni ta'minlashni ustuvor vazifa deb hisoblaymiz.** Yangi O'zbekistonda **fuqaro va biznesning himoyachisi faqat qonun va sud bo'lishiga erishamiz.**

**Birinchidan**, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali **sud nazoratini** o'rnatib, odil sudlovga erishish darajasini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

**Tergovda shaxs huquqini cheklashga sanksiya berish masalasi** alohida **sudyalar** tomonidan ko'rib chiqilishi amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Odamlarni “**qamoqqa olib tergov qilish**” amaliyoti kamaytiriladi, buning o‘rniga **garov ehtiyot chorasidan keng foydalanish** imkoniyati yaratiladi. Bu masalada ayblanuvchi yoki himoyachi tomonidan **sudlarga ehtiyot chorasini o‘zgartirish yuzasidan murojaat** qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Qamoqdagi shaxslardan olingan “**aybni bo‘yniga olish**” haqidagi ariza dalil sifatida qabul qilinmasligi ta’minlanadi.

**Ikkinchidan, jinoyat ishi qo‘zg‘atish va jazo berish bo‘yicha yondashuvlarni** qayta ko‘rib chiqamiz.

Jabrlanuvchining iltimosiga asosan **jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan ham yarashish imkoniyati** yaratiladi.

**Jinoyat sodir qilgan shaxslar** kelgusida tuzalish yo‘liga o‘tishi uchun **muqobil jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini** kengaytiriladi.

Uchinchidan, tadbirkorlar uchun **jinoiy javobgarlikka oid qonunchilikni** yanada liberallashtiramiz.

**Soliqqa oid jinoyatlar bo‘yicha tadbirkor sud hukmi chiqqunga qadar zararni qoplasa, javobgarlikdan ozod etish tartibi joriy etiladi.**

Tergov-sud jarayonida tadbirkorni himoya qilishga **Biznes ombudsman va Savdo-sanoat palatasini** **jalb etishga oid yangi tartib o‘rnataladi.**

## **V. YANGI O'ZBEKISTON – XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi belgilangan. Shundan kelib chiqib, **uzoq va yaqin davlatlar bilan do'stlik** aloqalari va o'zaro hamkorlikni barcha sohalarda rivojlantiramiz.

### **5.1. Tashqi siyosat**

**Biz ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat** olib borishni davom ettiramiz.

**Birinchidan**, Yangi O'zbekiston **tashqi siyosatini faqat xalqimiz va davlatimizning milliy manfaatlari dan** kelib chiqqan holda olib boramiz.

O'zbekistonning **siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi tashabbuslari** xalqaro maydonda faol ilgari suriladi.

**Qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik** munosabatlari jadal rivojlantiriladi.

**Markaziy Osiyoda** turli yo'nalishlar, ayniqsa, **suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport yo'laklarini rivojlantirish** borasidagi amaliy hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqiladi.

**Ikkinchidan, xorijdagi vatandoshlarimizni qo'l-lab-quvvatlab, ularning yurtimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beramiz.**

Xorijdagi vatandoshlarimiz orasida **ona tili, milliy madaniyat va an'analarni targ'ib etish** bo'yicha tizimli choralar ko'rildi.

Xorijdagi yurtdoshlarimizga dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi **davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish** imkoniyati yaratiladi.

**Uchinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi tizimi-ni** to'liq isloh qilib, xorijga ishlash uchun borayotgan aholimizni **kasbga va chet tillariga o'qitish ko'lamenti** kengaytiramiz.

Xorijda ishslash istagidagi yurtdoshlarimiz Yevropa va Osiyoning **yuqori haq to'lanadigan mamlakatlariga ishga** borishlari uchun davlat tomonidan ko'mak berish tartibi joriy etiladi.

Murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga **huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish** ko'لامи kengaytiriladi.

Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari davlatimiz, xalqimizning **doimiy g'amxo'rligida** bo'ladi, ularning farzandlari **o'qishi va oliygohlarga kirishida** ham yengilliklar beriladi.

## **5.2. Xavfsizlikni ta'minlash masalalari**

Jahonda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlar sharoitida bizning **bosh maqsadimiz** – O'zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

Birinchidan, Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida milliy armiyamizni 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va **harbiy texnika** bilan ta'minlaymiz.

Qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, **harbiy xizmatchilarni tayyorlash**, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, yoshlарimizni **vatанparvarlik ruhida tarbiyalash** borasida boshlangan ishlar jadal davom ettiriladi.

Ikkinchidan, harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyatni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylantiramiz.

**Harbiy xizmatchilarimizni, maktab, texnikum va oliygoohlarda o'qiyotgan bolalarimizni, barcha yoshlарimizni** tariximiz va **ma'rifatparvar ajdodlarimiz** merosi asosida **tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratiladi**.

Yosh avlodni **Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga**

**hurmat g'oyasi** atrofida birlashtirish bo'yicha alohida dastur asosida ish olib boriladi.

Davlatimiz ramzları, xususan, **bayrog'imiz xonadonlarda ham hilpirab turishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratilib, milliy g'ururimiz timsoliga aylantiriladi.**

### Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Dunyoda **qarama-qarshilik** va **to'qnashuvlar** tobo-ra kuchayib borayotgan, ertaga xalqaro vaziyat qanday tus olishini **oldindan aytib bo'lmaydigan** bugungi **g'oyat murakkab zamonda** ko'zlagan maqsadlarga erishish oson bo'lmaydi.

Lekin o'tgan davrda **xalqimiz bilan** katta safar-barlik ruhida ishlashni, **aniq natijalarga** erishishni o'rgandik. Ilgari **o'n yillar kerak bo'lgan** yo'lni qisqa muddatda bosib o'tdik. Yetarlicha bilim va tajriba orttirdik. Jahonda qancha do'st va hamkorlar topdik. **Dunyo – bizga, biz dunyoga ochildik.**

Eng muhimi, o'zining necha ming yillik shonli tarixi davomida **har qanday sinov va mashaqqatlardan yorug' yuz bilan** o'tib kelayotgan, **mard va matonatli xalqimiz bizga ishondi.**

Endi ana shu ishonchni amaliy ishlarimiz bilan yanada mustahkamlash davri keldi. Agar ezgu maqsadlarimiz yo'lida jipslashib, hammamiz bir bo'lib,

**astoydil harakat qilsak, men ishonaman, bundan ham katta marralarni zabit eta olamiz.**

Men, oliyanob, buyuk xalqimiz bilan birga yurtimizda erkin va farovon hayot, inson qadri baland bo'lgan yangi davlat, yangi jamiyatni barpo etishga **qattiq bel bog'laganman.**

Bu yuksak mas'uliyatli vazifani ado etish yo'lida o'zimning bor kuch-g'ayratim, bilim va tajribamni, kerak bo'lsa, butun borlig'imni bag'ishlashga tay-yorman.

El-yurtimizga farzandlik sadoqati bilan xizmat qilishdek buyuk e'tiqod doimo hayotimning ma'no-mazmuni bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan **davlat siyosatimizga, islohotlarimizga katta ishonch bildirib, meni hamisha qo'llab-quvvatlab kelayotgan ona xalqimga chin dildan ta'zim qilaman.**

**Aziz do'stlar!**

**Oldimizda turgan keng ko'lamli, g'oyat serqirra va mas'uliyatli vazifalarni ado etishda bizga Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!**